QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/b.series.fil.v08.i10.041

DETEKTIV OBRAZI: XARAKTER, TAFAKKUR VA RUHIYAT

Abdusalimova Sadoqatxon
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada detektiv asar kompozitsiyasida izquvar obrazining o‘rni, uning badiiy-estetik funksiyasi tadqiq etilgan. Detektiv xarakteri, tafakkuri va ruhiyatidagi o‘ziga xosliklar o‘zbek va jahon adabiyoti namunalari asosida dalillangan. Detektiv ruhiyatini yoritishda noverbal vositalarning roli ochiqlangan..*

Kalit so‘zlar: *detektiv asar, detektiv obrazi, xarakter, ruhiyat, portret, monolog, badiiy detal.*

Аннотация. *В статье исследуется роль образа сыщика в композиции детективного произведения, а также его художественно-эстетическая функция. Своеобразие характера, мышления и психологии детектива раскрывается на основе примеров из узбекской и мировой литературы. Выявляется роль невербальных средств в раскрытии психологического состояния детектива.*

Ключевые слова: *детективное произведение, образ детектива, характер, психология, портрет, монолог, художественная деталь.*

Abstract. *The article examines the role of the detective figure in the composition of detective fiction and explores its artistic and aesthetic function. The distinctive features of the detective’s character, thinking, and psychology are demonstrated through examples from Uzbek and world literature. The role of nonverbal means in revealing the detective’s psychological state is also examined.*

Keywords: *detective fiction, detective character, character, psychology, portrait, monologue, artistic detail.*

Kirish. Detektiv asar obrazlar galareyasida izquvar timsoli barcha jihatlardan dominantlik qiladi. U aqliy tafakkurda, psixologik barqarorlikda, manipulyatsion yondashuvlar, elementar detallarni katta situatsiyalar bilan bog‘lay olishda, qaror qabul qilishda jinoyatchi, qotildan baland bo‘lishi lozim. Albatta, jinoyatchining ham g‘oyat axmoq, layoqatsiz bo‘lishi mantiqan to‘g‘ri emas. Ammo jinoyatchi qanchalar ustomon bo‘lsa, izquvar har qaysi jabhada undan baland bo‘lmog‘i lozim.

Yozuvchi X.To‘xtaboyev haqli ta’kidlaganidek, “janrning eng katta talablaridan biri shuki, kurashga tushayotgan tomonlarning imkoniyati teng belgilanishi kerak. Qotil g‘oyat tajribali bo‘lib, izquvar no‘noq bo‘lsa, “o‘yin” tartibi buzilgan bo‘ladi. Yoki, aksincha, izquvar

o‘ta tajribali bo‘lib, qotil landovur bo‘lsa, bunda ham asar kitobxon e’tiborini tortolmay qoladi. Ya’ni, yozuvchi har ikki tomonning topqirligi, hushyorligi, jasorati va tafakkurining olishuvini kuzatib boradi. Detektiv janrning yana bir talabi asardagi bosh motiv qotilni axtarish motividan boshqa motivlar: ijtimoiy va muhabbat motivi singari zinhor ustun bo‘lmasligi kerak, xullas, detektivlarning o‘zaro kelisha olgan talaygina shartlari bor...”[1]

Asosiy qism. Adabiyot olamida mislsiz mashhurlikka erishgan Sherlok Xolms jahon adabiyotshunosligida izquvar obrazining arxetipi hisoblanadi. U keyingi detektiv qahramonlar (Puaro, Marpl, Niro Vulf) uchun namuna. Ayonki, shu tipdagi qahramonlar aks etgan sujet markazida tafakkur jarayoni turadi, boshqacha aytganda, detektiv asar tafakkur o‘yiniga asoslanadi. Badiiy voqelikdagi kichik detal, tafsilotlar ham asosiy voqeliklar tizginiga tutashib, muhim sirni ochib beruvchi kalit vazifasini o‘tashi mumkin. Detektivnavis ijodkorlarning g‘oyaviy-badiiy niyatlari izquvar obrazini gavdalantirishda namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, Sherlok Xolms – jinoyatni emas, inson aqlini tadqiq etuvchi, uning tafakkur imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi obraz.

Analitik fikrlash, hissiyot va mantiq o‘rtasidagi muvozanat izquvar ruhiyatning asosiy belgisidir. Sherlok Xolms ruhiyatining eng muhim xususiyati voqelikni mantiqiy tahlil qilish qobiliyati hisoblanadi. U oddiy insonlar ahamiyat bermaydigan mayda detallarni kuzatib, ulardan yaxlit xulosa chiqaradi. Bu uning yuqori intellektual salohiyati, diqqatning barqarorligi va tahliliy tafakkurining darajasini ko‘rsatadi. Xolms uchun har bir iz, har bir harakat yoki har bir so‘z psixologik va mantiqiy axborot manbayi hisoblanadi.

Izquvar kuzatuvchanligi bilan muammolarga yechim topadi. Xolms nafaqat ashyoviy dalillarni, balki insonlarning xatti-harakatlari, yuz ifodasi, ovoz ohangi va odatlarini ham tahlil qiladi. U jinoyatni ochishda inson psixologiyasini muhim omil sifatida baholaydi. Shu bois uning ruhiyatida analitik fikrlash bilan psixologik sezgirlik o‘zaro uyg‘unlashgan.

Jinoyatni taftish etish jarayonida Xolms ruhiy zavq bilan ishlaydi. U, asarda o‘zi ta’kidlaganidek, faoliyatini ijod deb tushunadi. Kasbiga bo‘lgan mehri unga ilhom bag‘ishlaydi. Uning xarakteri, ruhiyati bilan bog‘liq tavsiflar do‘sti Uotson tomonidan hayrat bilan bayon etiladi:

“Xolms kasbiy mashg‘ulotlari bilan band bo‘lgan paytida ortidan ergashib, uning shiddatli fikridan zavqlanish menga lazzat baxsh etardi. Nazarimda, u ko‘pincha oldiga qo‘yilgan topshiriqlarning yechimini aql bilan emas, qandaydir ilhomli his-tuyg‘u bilan topgandek edi. Lekin aslida uning har bir xulosasi aniq va qat’iy mantiqqa tayangan edi”[2. 34]

Xolmsning murakkab ruhiyati uning yolg‘izlikka moyilligida ham namoyon bo‘ladi. U jamiyatdan ma’lum darajada uzoqlashgan holda yashaydi, chunki aksariyat insonlar uning intellektual darajasiga yeta olmaydi. Bu holat ba’zan ichki bo‘shliq va zerikish hissini keltirib chiqaradi. Shu sababli murakkab jinoyatlar uning uchun nafaqat kasbiy vazifa, balki intellektual ehtiyoj ham hisoblanadi. Muallif Xolms ruhiyatini ochishda bir qator badiiy vositalardan foydalanadi:

- tashqi va ichki portret;
- mimik detallar;

- nutq xususiyatlari;
- ichki holatni harakatlar orqali ifodalash;
- doktor Jon Uotson nuqtayi nazari orqali Xolms shaxsiyatini yoritish;
- psixologik detallar va ramziy obrazlar.

Xolms jinoyatni ochishda dalillarni yig‘ish bilangina cheklanmaydi. U jinoyatchining fikrlash tarzi, maqsadi va ichki motivlarini anglashga intiladi. Shu jihatdan detektiv va jinoyatchi o‘rtasida intellektual va psixologik bellashuv yuzaga keladi. Bu bellashuv asar dramatizmini kuchaytiradi va Xolms obrazining ruhiy qirralarini yanada chuqurroq ochib beradi.

Sherlok Xolms obrazi ruhiyatining asosini yuqori darajadagi analitik tafakkur, kuchli kuzatuvchanlik, hissiyotni nazorat qilish, psixologik sezgirlik va adolat tuyg‘usi tashkil etadi. Muallif ushbu sifatlarni psixologizmning turli badiiy vositalari orqali ochib, detektiv obrazini nafaqat jinoyatni ochuvchi qahramon, balki inson ruhiyatini chuqur anglaydigan murakkab shaxs sifatida gavdalantiradi.

O‘zbek adabiyotida ham detektiv obrazini yaratish bo‘yicha o‘ziga xos tajriba bor. Ularning fikrlash tarzi, ish uslubida muayyan mushtarakliklar kuzatiladi. Jahon klassik detektivlaridan farqli ravishda jamoaviy ish uslubida faoliyat yuritadigan o‘zbek detektivlari sirasida ishchi guruhning rahbari izquvar modelining o‘zagini tashkil qiladi. Barcha tahlillar va jinoyatni ochish bilan bog‘liq harakatlar uning atrofida jamlanadi, undan tarqaladi.

Psixologik jihatdan olganda, mentaliteti, yoshi, kasbi, qiziqishlaridan qat’iy nazar insonning tafakkur tarzida ayrim mushtarak jihatlar kuzatiladi. Faqat noverbal vositalar – jest, mimika, kinetika farqlanishi mumkin.

Kapitan oldidagi qog‘ozga nimadir yozmoqchi bo‘ldi, lekin uning bo‘sh yeri qolmagan edi. Tortmadan yangi qog‘oz olib, bitta belgi qo‘ydi. Diqqat bilan qaralganda bu belgi o‘q-yoy teshib o‘tgan yurakni eslatardi.

Ikkinchi taxmin — Saidovaning o‘zi. Olloyorov u bilan ishqiy aloqada bo‘lmagan. Saidova undan qarzga mol ola boshlagan. Nihoyat, qarz ko‘payib ketgan. Olloyorov unga ishonmay qo‘ygan. Fojia shunda yuz bergan. Kapitan yana bir belgi qo‘ydi. Birpasdan so‘ng unga savol qo‘ydi.

Kapitanni chuqur o‘ylatib qo‘ygan uchinchi bir taxmin ham bor edi. Ular ishqiy aloqada bo‘lgan bo‘lishlari mumkin. Olloyorov o‘zi shu narsalarni sovg‘a qilgan. Saidova olgan. Lekin evaziga nima bergan? O‘zinimi? Nahotki, u shunchalik qimmat tursa? Olloyorovning atrofida chiroyli ayollar ko‘p bo‘lgan, hozir ham ko‘p. Nega u Saidovani tanladi? Pulga o‘ch odam bekordan-bekorga serharajat bo‘lmaydi.

Kapitan qog‘ozga “sh”(III) harfidek uchinchi belgi qo‘ydi-da, uni doiraga oldi. [3. 65.]

“Yoz yomg‘iri” qissasidagi ushbu misolda jestlar detektivning ruhiyatini, fikrlash tarzini ko‘rsatishda muhim omil vazifasini bajargan. Kapitan Aliyevda ham barcha izquvarlarda kuzatilganidek muammoni yechishda bir nechta taxmin va farazlar bor. U fikrlarni tartiblab sintez qilish maqsadida qog‘ozga yozib ishlash uslubiga odatlangan. Shu tarzda ko‘p mushohada qilib, taxminlarni ko‘rib chiqqanidan *qog‘ozning bo‘sh yeri qolmagan*. Mana shu psixologik detalning o‘ziyoq Aliyevning intellekti qanchalar baland ekanligini ko‘rsatadi.

Qahramonning ko‘p qatlamli ichki monologi ham roviy, ham detektivning o‘y-mushohalarini uyg‘unlashtirgan. Aliyevning o‘z-o‘zi bilan ichki bahsi asl mohiyatni oydinlashtirish yo‘lida javob izlayotgan adolat homiysining ruhiyatini namoyon etadi. Ichki monolog matnida kelgan har bir detal qahramonning ruhiy holatiga monand. Kapitan tomonidan qo‘yilgan *belgi o‘q-yoy teshib o‘tgan yurakni eslatishi* ikki begona shaxs – erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirish yo‘lida shubha va gumonlar asosida yuzaga kelgan.

Uchinchi taxminning (III(Ш) tarzida) qo’yilishi va uning doira olinish detallarida qidiruv ishlarining ayni shu taxminlar doirasida olib borilishiga ishora qilinadi.

Yolg‘iz qolgan holda mushohada yuritish, taxminlarni o’rtaga tashlash, ularni savollar asosida turli rakurslardan o’rganish, dalillarni tahlil qilish, ichki sezimlar asosida eng maqbul variantni belgilab shu asosda harakat qilish, jamoani ish tartibini shunga ko’ra yangilangan holda takomillashtirib borish ishchi guruh rahbarining sifatlariga kiradi. Klassik detektivdan farqli ravishda o’zbek detektiv asarlaridagi izquvar obrazi ijtimoiylashgan (Xolms o’zi yashayotgan jamiyatdan begonalashgan) shaxs, u o’zi yashayotgan va jinoyat yuz bergan davrning vakili sifatida ijtimoiy omillarni asosiy o’ringa qo’yadi, oila mas’uliyatini his etadi. Shuningdek, ularda Xolmsdan farqli ravishda jamoani boshqarish ko’nikmalari bor. Xolms o’zi bir kishilik guruh, ba’zi sarguzashtlarda Uotson bilan hamkorlikda ishlaydi, ularni mikroguruh, deb atash mumkin. Asosiy e’tibor Xolms obraziga qaratilsa ham, Uotson unga hamkor sifatida asarning g‘oyaviy-badiiy yukini sezilarli darajada zimmasiga olgan. U ham roviy, ham yondosh obraz vazifasini bajaradi. Jinoyatni fosh etishda qarashlar xilma-xilligi shu asosda ta’minlangan.

Jamoaviy ish yuritilish holatlarida esa jinoyatni fosh etishdagi qarashlar rang-barang. Jamoada nechta a’zo bo’lsa, shuncha fikrlar, taxminlar o’rganib chiqiladi. O’rtaga tashlangan farazlar guruh rahbari tomonidan asos va dalillarga suyangan holda, mantiqiy fikrlash asnosida, xolislik tamoyillariga ko’ra saralanadi.

Jahon klassik detektivi va o’zbek detektiv obrazi tahlilida ularning quyidagi xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlilga yondashish joiz:

Jahon klassik detektivida Sherlok Xolms	**O’zbek adabiyotida detektiv obrazi**
Kuchli intellekt sohibi, izquvarlikning barcha mas’uliyati zimmasida	Liderlik qobiliyati yuqori, mas’uliyatli va vazifalar ijrosini nazoratchisi
Introvert, jamiyatdan begonalashgan shaxs	Ijtimoiy faol, oila va jamiyat oldidagi burchni yaxshi anglaydi
Qonun doirasida, ammo individual ish ko‘radi	Qonun nazoratchisi va ijrochisi
Badiiy detallar vositasida izquvar portretiga xos chizgilar aks etadi.	Badiiy detallar vositasida izquvar portretiga xos chizgilar aks etadi.
Bayon uslubidagi xabar mazmunining ustuvorligi, dramatizmga boy dialoglar	Monolog, ichki monolog, dialog, polilog(bahs, munozara), parsellyatsiyaning muhim badiiy-estetik vazifa bajarishi

Xulosa shuki, detektiv obrazi klassik va zamonaviy adabiyotdagi xalq qahramoni darajasidagi obraz. U Alpomish, Manas, Ram, Odissey singari ezgulik yo‘lida, adolatni qaror

toptirish maqsadida kurashadi. U qo‘shinsiz, askarlarsiz jamiyatdagi adolat tarozisining muvozanatini saqlash yo‘lida astoydil harakat qiladi. Xalq qahramonlaridan farqli ravishda bu kurash jismoniy emas, tafakkurda kechadi. Ba’zan jismoniy kurashlar taqazo qilsa-da, asosan aql bilan, hissiy intuitsiya bilan nohaqlik, zulm va qon to‘kilishiga qarshi dadil tura oladi. Ayni mana shu xatti-harakati bilan jamiyatni tozalash, poklash, uning insoniy tabiatini asrash yo‘lida muhim hissa qo‘shadi. Mazkur obrazning o‘ziga xosligi u xalq qahramonlari singari romantik obraz emas, u realistik tamoyillarga ko‘ra yaratilgan, oddiy insonlardan u qadar farq qilmaydigan obraz. Unga o‘z maqsadiga erishish yo‘lida sehrgarlik, sehr kuchiga ega predmetlar yordam bermaydi, u g‘ayri oddiy tarzdagi jismoniy ustunlikka ham ega emas. Lekin detektivda aqliy ustunlik, psixologik quvvat, ruhan teranlik, sobit iroda bor. Ana shunday insoniy va kasbiy sifatlardagi ustunliklar asosida g‘alabaga erishadi, kitobxonlar diqqatiga sazovor bo‘ladi. Shu jihatdan bu obraz alohida e’tiborga, tadqiqotga loyiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тўхтабоев Х. Истеъдод қирраси // – Т.: Ёш гвардия, 1983. В. 3-4.
2. Артур Конан Дойл. Шерлок Холмс ҳақида ҳикоялар. Т.: Юлдузча, 1989.
3. Умарбеков Ў. Ёз ёмғири. Т. www.ziyouz.com
4. *Detective*. http://m.wikipedia.org/wiki.
5. Izquvar obrazi va naratologiya masalalari // O’zbek tili va adabiyoti. — 2016–2025 yy.
6. Smith A. Detective Fiction and the Art of Deduction. — London: Bloomsbury, 2012. — 224 p.
7. Scaggs J. Crime Fiction (2nd yed.). — London: Routledge, 2014. — 208 p.
8. Knight S. Crime Fiction since 1800: Detection, Death, Diversity (2nd yed.). —
9. Abbott H. P. The Cambridge Introduction to Narrative. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — 256 p.